

ONA TILI DARSLARIDA FAOL O'QITISH USULLARI VA DIDAKTIK O'YINLAR

Tursunova Mariyanna Inotulla qizi

Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani

16-IDUM ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarida faol o'qitish usullari va didaktik o'yinlar yoritilgan bo'lib, unda bir qancha usullar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ilg'or tajribalar, kasbiy mahorat, ona tili, nutq, savodxonlik, didaktik o'yinlar, interfaol usullar, hamkorlik...

Ta'lim mazmun-mohiyatining o'zgarayotganligi, ta'lim berish jarayoniga zamonaviy yondashuvlar hamda xalqaro tajribalarni joriy etish taklif etilayotgan bir davrda ta'lim berishga pedagogik munosabat ham o'zgarishi lozim. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda ta'lim mazmunini yangilash, takomillashtirish, o'qitish samaradorligini va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ilg'or tajribalarni keng ommalashtirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilayapti.


Dars – o'quvchilar uchun! Dars rejalashtirishda shablonga emas, balki imkoniyat va o'quvchilar yoshi, qiziqishlari hisobga olinishi samaradorlikni oshiradi. Ta'limi didaktik o'yinlar, interfaol usullar esa, ayniqsa, kichik mifik yoshidagi o'quvchilar faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi, ular dunyoni va o'zlikni anglashda, o'quvchilarning ijodiyligi tafakkurini o'stirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ona tili darslarida ta'limi o'yinlar bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillatishga, o'quvchilarni darsga to'liq jalb etishga yordam beradi, ular o'quvchilarning o'zaro va o'qituvchilar bilan hamkorligini mustahkamlashda nihoyatda katta ahamiyatga ega. Biroq ulardan o'quvchilarning yosh

xususiyatlaridan kelib chiqqan holda foydalanish mumkin. Ta’limiy o‘yinlarni qo‘llashda me’yorni bilish kerak, ularni haddan ziyod ko‘paytirib yuborish o‘quvchini dars maqsadidan chetlashtirib qo‘yishi mumkin. Faol o‘qitish usullari haqida fikrimizni yakunlar ekanmiz o‘qituvchilarga shuni eslatishimiz kerakki, bu yerda ko‘rib chiqqan o‘qitish usullari o‘ziga xos alohida misollarga ega. Shuningdek, mazkur usullardan ona tili darslari jarayonida foydalanish o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma, malakalarni ongli ravishda va samarali o‘zlashtirish imkonini beradi.

Ona tili o‘qitishning bosh maqsadi quyidagilar:

- ❖ O‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri, ravon bayon qiladigan;
- ❖ kitobxonlik madaniyati shakllangan;
- ❖ mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan;
- ❖ o‘zgalar fikrini anglaydigan;
- ❖ muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish

Ona tili darslarida o‘quvchilarni faol o‘qitish usullari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:



“O‘rnini top!” usuli. Bu usul mustahkamlovchi xarakterda bo‘lib, unlisining talaffuz variantlari o‘rgatib bo‘lingandan so‘ng qo‘llaniladi. Birinchi guruh o‘quvchilari rasmida ko‘rsatilgan narsalarning nomlarini talaffuz qiladi. Ikkinchisi guruh ularni jadvalga joylashtiradi.

Rasmida (videoproyektor yoki plakatda it, ilon, tipratikan, ukki, tulki, bo‘ri, sigir, sichqon kabilarning rasmi beriladi)

Aniq talaffuz qilinadi	Qisqa talaffuz qilinadi	Talaffuz qilinmaydi
------------------------	-------------------------	---------------------

“Kim xattot?” usuli. Sinf uch guruhga bo‘linadi. Qur'a tashlash yo‘li bilan ulardan biri ekspert, qolgan ikkisi bahslashuvchi jamoalarga ajratiladi. Ekspert guruhi jamoasi x va h undoshi ishtirok etgan so‘zlarni aralash holda aytaveradi, bu so‘zlardan bir jamoa tarkibida x undoshi ishtirok etgan so‘zlarni, ikkinchi jamoa tarkibida h undoshi ishtirok etgan so‘zlar qatorini yozib boradilar. Belgilangan vaqtda jamoalar ishi to‘xtatiladi. Ekspertlar jamoasi ikkala guruh

ishlarini tekshirib beradi. Ish yakunida o‘qituvchi uchala guruh ishlarini ko‘rib chiqib baholaydi.

5 «daqiqa» usuli

Bu interfaol usulni xohlagan fanning xohlagan mavzusini o‘rganish jarayonida qo‘llash mumkin. O‘quvchilarni stol atrofida shunday joylashtirish kerakki, bir-birining nima yozayoganligini ko‘rmasin. Usulni o‘qituvchi yoki a’lochi o‘quvchi boshqarib borishi mumkin. U vazifani tanlaydi. O‘quvchi 5 daqiqa ichida topshirilgan topshiriqni bajaradi. O‘quvchilar yozishni bir vaqtida tugatishi shart. Geografiyadan joy nomlari, tarixdan xronologik sanalar, ona tili va adabiyotdan gap bo‘laklari, matematika, fizika, kimyodan formulalar bo‘lishi mumkin. Eng ko‘p nom yozgan va uni izohlab bergen o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.

Interfaol metod - o‘quv jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, bir vaqtning o‘zida ham o‘qituvchi, ham o‘quvchini faollashtirishga yo‘naltirilgan o‘qitish usullari majmui.

Xullas, til o‘rganish jarayoni, avvalo, jonli muloqotni taqozo etadi. Hozirgi kunda kompyuter texnologiyalarini yangi pedagogik texnologiyalar va an’anaviy metodlar bilan uyg‘unlashtirgan holda tatbiq etish yuqori samara berib kelmoqda. Ayniqsa, nutq o‘sirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, muammoli mavzularni yoritishda kompyuter kuchli o‘quv vositasi hisoblanadi. Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisining vazifasi o‘quvchining og‘zaki nutqini o‘sirish uchun shart-sharoit o‘quvchilarga zarur yordamni tez hamda qulay usul bilan yetkazishdan iborat. Buning uchun dars jarayonida mavzu mazmunidan kelib chiqib, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish zarur bo‘ladi.

Shundagina o‘quvchining shaxsiy layoqati, bilim saviyasiga mos ravishda mashq va topshiriqlar berish orqali ona tilini o‘rganish jarayonini yuksak saviyada tashkil etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o’qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001-yil
2. Azizxo’jaev N.N. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar . – Toshkent, 2002-yil
3. Internet saytlari: www.ziyo.net, www.edu.uz, www.kitob.uz